XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 2-avgust VI-110-55-11-169-K/24 Farg‘ona shahar

Farg‘ona shahrining ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini ko‘rib chiqish haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni “Yer resurslaridan oqilona foydalanish, yer hisobini yuritish hamda kadastr xizmatlari sifatini yaxshilash bo‘yicha kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan o‘tkazilgan kengaytirilgan videoselektor yig‘ilishining 41-son bayoni hamda mazkur bayonning 20-bandi ijrosini ta’minlash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda 03/4.3-253-son “Yo‘l xaritasi” tasdiqlangan.

“Yo‘l xaritasi”sining 6 va 7-bandlarida hududiy komissiyalar tomonidan muammoli hududlarda chegara chizig‘ini belgilash bo‘yicha tayyorlangan takliflarni ko‘rib chiqish va qo‘shni hududlar bilan kelishish hamda kelishilgan chegara chizig‘ini tasdiqlash bo‘yicha tegishli Xalq deputatlari Kengashining qarorlarini qabul qilish choralarini ko‘rish topshirig‘i berilgan.

Ma’lumki, Farg‘ona shahri ma’muriy-hududiy chegaralarini belgilash va yer resurslarini xatlovdan o‘tkazishni muvofiqlashtiruvchi Komissiyasining 2024-yil 22-iyundagi 1830-03-22-sonli bayonnomasi bilan Farg‘ona shahrining Marg‘ilon shahar, Quvasoy shahar, Farg‘ona va Toshloq tumanlari bilan ma’muriy-hududiy chegarasining kartografik chizmalari va chegaraning tavsiflari tegishlicha ilovalarga muvofiq tasdiqlangan.

“Yo‘l xaritasi”ning 5-bandini ijrosi bo‘yicha, Kadastr agentligi tomonidan Farg‘ona shahrining chegara chizig‘i chizmasi va tavsiflari tayyorlanib, Agentlikning 2024-yil 28-martdagi 03/08-2963-son xati bilan Kadastr agentligi Farg‘ona viloyati boshqarmasiga ko‘rib chiqish va kelishish uchun taqdim etilgan.

Respublika ayerogodeziya markazi Farg‘ona xududlararo bo‘linmasining 2024-yil 20-iyundagi 111-sonli xat bilan xalq deputatlari tuman Kengashiga murojaat qilib, tuman kengashining sessiyasida Farg‘ona shahrining chegara chizig‘i chizmasi va tavsiflarini ko‘rib chiqilishida amaliy yordam berilishi so‘ralgan.

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy-hududiy tuzilish to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasiga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2024-yil 28-martdagi 03/08-2963-sonli xati, respublika ayerogodeziya markazi Farg‘ona xududlararo bo‘linmasining 2024-yil 20-iyundagi 111-son xati va shahar ishchi komissiyasining 2024-yil 22-iyundagi 1830-03-22-sonli bayonnomasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat xokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasida “Xalq deputatlari Kengashi, hokim O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq yer munosabatlariga doir boshqa masalalarni hal qilishi” hamda “O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasida xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar (Qoraqalpog‘iston Respublikasi tumanlari va shaharlari) Kengashlari o‘z vakolatlari doirasida ma’muriy-hududiy tuzilish masalalariga doir qarorlar qabul qilishi belgilanganligi ko‘rsatib o‘tilsin.

3. Farg‘ona shahri ma’muriy-hududiy chegaralarini belgilash va yer resurslarini xatlovdan o‘tkazishni muvofiqlashtiruvchi komissiyasining (keyingi o‘rinlarda-Komissiya deb yuritiladi) Farg‘ona shahrining Marg‘ilon shahari, Quvasoy shahar, Farg‘ona va Toshloq tumanlari bilan ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash to‘g‘risida”gi yig‘ilish bayoni ma’qullansin.

4. Farg‘ona shahrining ma’muriy-hududiy chegara uzunligi va umumiy yer maydoni 1-ilovaga, Farg‘ona shahrining ma’muriy-hududiy chegara chizig‘ining sxemasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Xalq deputatlari shahar Kengashining tegishli qarori qabul qilinganda hamda ma’muriy-hududiy chegara davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgandagina (Ma’muriy hududiy birliklar davlat reyestriga kiritilganda) Farg‘ona shahrining Marg‘ilon shahari, Quvasoy shahar, Farg‘ona va Toshloq tumanlari bilan ma’muriy-hududiy chegarasi belgilangan deb hisoblansin.

6. Mazkur Qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashi (Sh.Kamalov) hamda Kadastr agentligi Farg‘ona shahar bo‘limi (O.Karimov) zimmalariga yuklatilsin.

7. Ushbu qarorning tasdig‘i Xalq deputatlari viloyat Kengashidan so‘ralsin.

Kengash raisi NAZAROV VOSILJON SHUXRATOVICH


Xalq deputatlari Farg‘ona shahar
Kengashining
2024-yil 2-avgustdagi
VI-110-55-11-169-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Farg‘ona shahrining ma’muriy-hududiy chegara uzunligi va umumiy yer maydoni haqida ma’lumot

№	Shahar nomi	Chegara uzunligi (metr)	Yer maydoni (gektar)
1.	Farg‘ona shahar	71328,41	10861,48

Xalq deputatlari Farg‘ona shahar
Kengashining
2024-yil 2-avgustdagi
VI-110-55-11-169-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Farg'ona viloyati Farg'ona shahri
ma'muriy-hududiy chegara chizig'ining
SXEMASI



Farg‘ona viloyati Farg‘ona shahri chegaralarini belgilashda dala kuzatuv ishlarining yakuniy natijalari bo‘yicha

T A V S I F I

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 15-dekabrdagi 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan “Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va tuman(shahar)lar ma’muriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash ishlarini amalga oshirish bo‘yicha yo‘l xaritasi” hamda Kadastr agentligining 2023-yil 29-noyabrdagi 84-01-sonli yig‘ilish bayonining **12-bandiga** muvofiq, Farg‘ona viloyati Farg‘ona shaharning ma’muriy-hududiy chegaralari o‘rganilib chiqilib, natijada tumanlar bilan chegaralar quyidagicha kelishildi.

Farg‘ona shaharning tashqi chegarasi quyidagicha ta’riflandi: Farg‘ona shahar va Toshloq tumani chegara chiziqlari tutashgan joyidagi Janubiy Farg‘ona kanali bo‘yida joylashgan nuqta boshlang‘ich 1-nuqta deb qabul qilindi. *(WGS-84 kordinatalar tizimida, shimoliy kenglik 40°27’23,087", sharqiy uzunlik 71°47’45,086")*

A dan B gacha Toshloq tumani yerlari bilan 1-8-nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

1-nuqtadan chegara chizig‘i Janubiy Farg‘ona kanalni kesib o‘tadi va sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda kanalning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 380 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 568 metr, so‘ngra sharqiy yo‘nalishda 158 metr, so‘ng janubiy-sharqiy yo‘nalishda 39 metr masofada 4N-838 avtomobil yo‘liga tutashadi, so‘ng avtomobil yo‘lini kesib o‘tadi va kanalning suv oqimga qarshi o‘ng tomonidan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 169 metr masofani o‘tib, kanal burilishida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°27’15,450", sharqiy uzunlik 71°48’36,409")*

2-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy yo‘nalishda Janubiy Farg‘ona kanalning suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 105 metr masofada kanalni kesib o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°27’12,743", sharqiy uzunlik 71°48’37,174")*

3-nuqtadan chegara chizig‘i Janubiy Farg‘ona kanaldan Isfayram soyga o‘tadi va janubiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘idan barcha burilishlarini hisoga olgan holda 640 metr, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 327 metr masofani o‘tib, soy burilishida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik (40°26’43,411", sharqiy uzunlik 71°48’48,346")*

4-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda Isfayram soyning suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘idan barcha burilishlarini hisoga olgan holda 762 metr, keyin janubiy-sharqiy yo‘nalishda 119 metr, so‘ngra janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 252 metr masofani o‘tib, soy burilishida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°26’12,830", sharqiy uzunlik 71°48’35,357")*

5-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda Isfayram soyning suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘idan barcha burilishlarini hisoga olgan holda 196 metr, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 333 metr, so‘ngra janubiy-janubiy-sharqiy

yo‘nalishda 314 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°25’49,891", sharqiy uzunlik 71°48’41,547")*

6-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lidan soyga o‘tadi va umumiy shimoliy yo‘nalishda Isfayram soyning suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘idan barcha burilishlarini hisoga olgan holda 361 metr, keyin janubiy-sharqiy yo‘nalishda 386 metr, so‘ngra sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 702 metr masofani o‘tib, soy burilishida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°25’19,882", sharqiy uzunlik 71°49’ 18,539")*

7-nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda Isfayram soyning suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘idan barcha burilishlarini hisoga olgan holda 49 metr, keyin janubiy-sharqiy yo‘nalishda 275 metr masofani o‘tib, Farg‘ona, Quvasoy shaharlar va Toshloq tumani chegara chiziqlari kesishgan soy bo‘yida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°25’15,789", sharqiy uzunlik 71°49’26,195")*

B dan D gacha Quvasoy shahar yerlari bilan 8-24-nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

8-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda Isfayram soyning suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘idan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 44 metr masofadan keyin chegara quruq chegara chizig‘i orqali sharqiy- janubiy-sharqiy yo‘nalishda 52 metr masofada ariq bilan tutashadi, so‘ngra janubiy-sharqiy yo‘nalishda 208 metr masofani o‘tib, Isfayram soyi bo‘yida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°25’10,032", sharqiy uzunlik 71°49’36,444")*

9-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda Isfayram soyning suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘idan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 195 metr masofada ariqqa o‘tadi va janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomonidan 107 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bilan tutashadi, keyin yo‘lning janub tomonidan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 58 metr masofani o‘tib, 4R-112 avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°25’02,502", sharqiy uzunlik 71°49’46,951")*

10-nuqtadan chegara chizig‘i to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali 17 metr masofada 4R-122 avtomobil yo‘lini kesib o‘tib Isfayram soyi bilan tutashadi, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 198 metr, so‘ngra janubiy yo‘nalishda 193 metr masofada tomorqa chegarasi o‘tadi va tomorqa chegarasi bo‘ylab umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 460 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40° 24’ 38,978", sharqiy uzunlik 71° 50’ 00,350")*

11-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 257 metr, keyin umumiy janubiy yo‘nalishda 339 metr, so‘ngra janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 200 metr, so‘ng shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 39 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°24’18,225", sharqiy uzunlik 71°50’15,205")*

12-nuqtadan chegara chizig‘i ariqdan quruq chegara chizig‘iga o‘tadi va quruq chegara chizig‘i orqali janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 141 metr masofada tomorqa devoriga o‘tadi va tomorqa devori bo‘ylab janubiy yo‘nalishda 162 metr masofada ariq bilan tutashadi, keyin janubiy yo‘nalishda 212 metr, so‘ngra janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 433 metr, so‘ng sharqiy yo‘nalishda 42 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°23’48,932", sharqiy uzunlik 71°50’25,344")*

13-nuqtadan chegara chizig‘i to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, ariq bilan tutashadi, keyin umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 743 metr masofadan keyin chegara quruq chegara chizig‘i orqali janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 143 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°23’23,684", sharqiy uzunlik 71°50’41,533")*

14-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 84 metr masofadan keyin ariqni kesib o‘tib, tomorqa chegarasi bilan tutashadi, so‘ngra tomorqa chegarasi bo‘ylab umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda 688 metr, masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°23’05,464", sharqiy uzunlik 71°50’53,056")*

15-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 741 metr, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 121 metr masofani o‘tib dala tuproq yo‘li bilan tutashadi, so‘ngra yo‘lning g‘arb tomonidan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 155 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 108 metr, so‘ngra shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 47 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°22’35,844", sharqiy uzunlik 71°51’15,758")*

16-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 791 metr masofani o‘tib dala tuproq yo‘li bilan tutashadi, keyin yo‘lning g‘arb tomonidan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 207 metr, so‘ngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 37 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°22’10,755", sharqiy uzunlik 71°51’40,301")*

17-nuqtadan chegara chizig‘i to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, ariq bilan tutashadi, keyin umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 891 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°21’45,222", sharqiy uzunlik 71°51’51,673")*

18-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 530 metr, keyin umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 190 metr masofani o‘tib, ariq burilishida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°21’31,009", sharqiy uzunlik 71°52’10,170")*

19-nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 54 metr, keyin janubiy-sharqiy yo‘nalishda 45 metr, so‘ngra shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 33 metr, so‘ng janubiy-sharqiy yo‘nalishda 235 metr masofani o‘tib, ariq burilishida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°21’25,878", sharqiy uzunlik 71°52’ 21,375")*

20-nuqtadan chegara chizig‘i g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 67 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 148 metr, so‘ngra janubiy-sharqiy yo‘nalishda 176 metr, so‘ng sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 45 metr va janubiy-sharqiy yo‘nalishda 106 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 21-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°21’16,473", sharqiy uzunlik 71°52’33,885")*

21-nuqtadan chegara chizig‘i ariqdan quruq chegara chizig‘i orqali janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 358 metr masofada temir yo‘lini kesib o‘tib, temir yo‘li bo‘yida joylashgan 22-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°21’09,227", sharqiy uzunlik 71°52’22,040")*

22-nuqtadan chegara chizig‘i temir yo‘lining janub tomonidan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 210 metr masofada ariqqa o‘tadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomonidan g‘arbiy yo‘nalishda 81 metr, keyin janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 157 metr masofada dala tuproq yo‘li va ariqni kesib o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 23-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°21’10,306", sharqiy uzunlik 71°52’07,511")*

23-nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomonidan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 396 metr, keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 399 metr masofani o‘tib, Farg‘ona, Quvasoy va Farg‘ona tuman chegara chiziqlari kesishgan ariq bo‘yida joylashgan 24-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°21’12,596", sharqiy uzunlik 71°51’40,924")*

D dan E gacha Farg‘ona tumani yerlari bilan 24-50-nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

24-nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomonidan g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 355 metr, keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 332 metr, so‘ngra shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 93 metr masofani o‘tib, ariq burilishida joylashgan 25-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°21’13,374", sharqiy uzunlik 71°51’11,537")*

25-nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomonidan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 856 metr masofada 4R-205 avtomobil yo‘li bilan tutashadi, keyin yo‘lining g‘arb tomonidan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 126 metr masofada 4R-145 avtomobil yo‘liga o‘tadi va yo‘lning janub tomonidan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1013 metr, so‘ngra g‘arbiy yo‘nalishda 573 metr, so‘ng yo‘lning sharq tomonidan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nlishda 1371 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 26-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°20’18,824", sharqiy uzunlik 71°48’59,618")*

26-nuqtadan chegara chizig‘i 4R-145 avtomobil yo‘lining janub tomonidan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 206 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, beton ariq bilan tutashadi, keyin beton ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomonidan shimoliy-g‘arbiy yo‘nlishda 31 metr, so‘ngra janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 345 metr masofada dala tuproq yo‘liga o‘tadi va yo‘lning kesib o‘tib, ariq bilan tutashadi, so‘ng ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomonidan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 32 metr masofani o‘tib, shahar ichki yo‘li bo‘yida joylashgan 27-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°20’08,705", sharqiy uzunlik 71°48’40,438")*

27-nuqtadan chegara chizig‘i shahar ichki yo‘lining yo‘lning g‘arb tomonidan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 269 metr, keyin umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 243 metr, so‘ngra janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 82 metr, so‘ng shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 100 metr masofada ariq bilan tutashadi, keyin ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomonidan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarinii hisobga olgan holda 207 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 28-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°20’26,711", sharqiy uzunlik 71°48’31,693")*

28-nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomonidan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 540 metr, keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 286 metr, so‘ngra g‘arbiy yo‘nalishda 320 metr, so‘ng

g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 107 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 29-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°20’14,853", sharqiy uzunlik 71°47’48,219")*

29-nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomonidan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 440 metr, keyin shimoliy yo‘nalishda 442 metr masofada zovurga o‘tadi va zoavurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomonidan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 207 metr, so‘ngra shimoliy yo‘nalishda 97 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 30-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°20’48,887", sharqiy uzunlik 71°47’48,088")*

30-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining yo‘lining janub tomonidan g‘arbiy yo‘nalishda 951 metr, keyin yo‘lning g‘arb tomonidan janubiy yo‘nlishda 906 metr, so‘ngra yo‘lning shimol tomonidan g‘arbiy yo‘nalishda 506 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 31-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°20’23,820", sharqiy uzunlik 71°46’47,727")*

31-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy yo‘nalishda beton ariqning suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 543 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tadi va ariq bilan tutashadi, keyin janubiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 112 metr masofada 4R-145 avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 32-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°20’02,900", sharqiy uzunlik 71°46’43,400")*

32-nuqtadan chegara chizig‘i 4R-145 avtomobil yo‘lining janub tomonidan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 159 metr, keyin g‘arbiy yo‘nalishda 599 metr masofada 4R-144 avtomobil yo‘liga o‘tadi, so‘ngra yo‘lning sharq tomonidan janubiy yo‘nalishda 257 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 33-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°19’58,018", sharqiy uzunlik 71°46’12,200")*

33-nuqtadan chegara chizig‘i 4R-144 avtomobil yo‘lidan dala tuproq yo‘liga o‘tadi va yo‘lining janub tomonidan g‘arbiy yo‘nalishda 1863 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 34-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°20’04,827", sharqiy uzunlik 71°44’53,839")*

34-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lidan quruq chegara chizig‘i orqali g‘arbiy yo‘nalishda 51 metr, keyin shimoliy yo‘nalishda 212 metr masofada ayeraport devoriga tutashadi, so‘ngra ayeraport devori bo‘ylab sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 344 metr, so‘ng shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 623 metr va sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 214 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 35-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°20’24,061", sharqiy uzunlik 71°45’27,610")*

35-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining g‘arb tomonidan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1106 metr masofadan keyin chegara quruq chegara chizig‘i orqali shimoliy yo‘nalishda 130 metr masofada ayeraport devori bilan tutashadi, so‘ngra ayeraport devori bo‘ylab shimoliy yo‘nalishda 449 metr, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 219 metr masofani o‘tib, ayeroport devor bo‘yida joylashgan 36-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°21’18,447", sharqiy uzunlik 71°45’45,522")*

36-nuqtadan chegara chizig‘i ayeroport devori bo‘ylab shimoliy yo‘nalishda 1606 metr masofani o‘tib, 4R-145 avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 37-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°22’08,418", sharqiy uzunlik 71°45’48,860")*

37-nuqtadan chegara chizig‘i 4R-145 avtomobil yo‘lining janub tomonidan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 629 metr, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda

951 metr, so‘ngra g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 513 metr masofani o‘tib, ayeroport devori bo‘yida joylashgan 38-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°22’49,624", sharqiy uzunlik 71°44’43,546")*

38-nuqtadan chegara chizig‘i ayeroport devori bo‘ylab janubiy yo‘nalishda 247 metr, keyin g‘arbiy yo‘nalishda 282 metr, so‘ngra janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 59 metr masofani o‘tib, ayeroport devor bo‘yida joylashgan 39-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°22’38,555", sharqiy uzunlik 71°44’29,959")*

39-nuqtadan chegara chizig‘i ayeraport devordan quruq chegara chizig‘i o‘tadi va g‘arbiy yo‘nalishda 67 metr, keyin janubiy yo‘nalishda 2547 metr, so‘ngra g‘arbiy yo‘nalishda 168 metr masofani o‘tib, chegara chizig‘i burilishida joylashgan 40-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°21’16,294", sharqiy uzunlik 71°44’12,813")*

40-nuqtadan chegara chizig‘i quruq chegara chizig‘i orqali shimoliy yo‘nalishda 873 metr, keyin g‘arbiy yo‘nalishda 235 metr, so‘ngra shimoliy yo‘nalishda 258 metr, so‘ng g‘arbiy yo‘nalishda 1796 metr va g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 394 metr masofani o‘tib, chegara chizig‘i burilishida joylashgan 41-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°21’40,854", sharqiy uzunlik 71°42’34,886")*

41-nuqtadan chegara chizig‘i 4N-919 avtomobil yo‘lining sharq tomonidan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 905 metr masofada 4R-146 avtomobil yo‘liga o‘tadi, keyin avtomobil yo‘lining sharq tomonidan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 129 metr masofada yo‘lni kesib o‘tib, ariq bilan tutashadi, so‘ngra ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomonidan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 207 metr, shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 68 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l burilishida joylashgan 42-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°22’15,175", sharqiy uzunlik 71°42’12,625")*

42-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining shimol tomonidan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 243 metr, keyin yo‘lning sharq tomonidan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 481 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 43-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°22’33,367", sharqiy uzunlik 71°42’08,933")*

43-nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomonidan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 132 metr, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 452 metr, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 445 metr masofadan so‘ng sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobyuga olgan holda 153 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yiad joylashgan 44-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°22’53,467", sharqiy uzunlik 71°42’43,140")*

44-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining shimol tomonidan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 164 metr, keyin sharqiy yo‘nalishda 232 metr, so‘ngra avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘lning janub tomonidan sharqiy yo‘nalishda 679 metr, so‘ng yo‘lning sharq tomonidan shimoliy yo‘nalishda 570 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘li bo‘yida joylashgan 45-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°23’16,566", sharqiy uzunlik 71°43’23,598")*

45-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining shimol tomonidan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 498 metr, keyin yo‘lning g‘arb tomonidan shimoliy yo‘nalishda 81 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 46-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°23’21,435", sharqiy uzunlik 71°43’43,693")*

46-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib, ariq bilan tutashadi, keyin sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 273 metr, so‘ngra janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda

69 metr masofada qishloq ichki yo‘liga o‘tadi va yo‘lning shimol tomonidan sharqiy yo‘nalishda 1000 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 47-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°23’17,648", sharqiy uzunlik 71°44’36,572")*

47-nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomonidan shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 344 metr, keyin g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 126 metr masofada avtomobil yo‘liga o‘tadi va shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 94 metr masofada masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘li bo‘yida joylashgan 48-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°23’33,013", sharqiy uzunlik 71°44’31,814")*

48-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lidan temir yo‘liga o‘tadi va temir yo‘lining g‘arb tomonidan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1526 metr, keyin shimoliy yo‘nalishda 969 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 49-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°24’42,315", sharqiy uzunlik 71°43’49,270")*

49-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, zovur bilan tutashadi, keyin zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomonidan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holad 667 metr, so‘ngra shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 268 metr masofada 4R-112 avtomobil yo‘liga o‘tadi, so‘ng shimoliy yo‘nalishda 30 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, keyin yo‘lning shimol tomonidan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 260 metr masofani o‘tib, Farg‘ona, Marg‘ilon shaharlar va Farg‘ona tuman chegara chiziqlari kesishgan yo‘li bo‘yida joylashgan 50-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°25’06,725", sharqiy uzunlik 71°43’13,110")*

E dan A gacha Marg‘ilon shahar yerlari bilan 50-1-nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

50-nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomonidan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 235 metr, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 495 metr masofada shahar ichki yo‘liga o‘tadi va yo‘lning janub tomonidan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 100 metr masofada tomorqa devori bilan tutashadi, so‘ngra tomorqa devori bo‘ylab janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 97 metr masofada shahar ichki yo‘liga o‘tadi va yo‘lning sharq tomonidan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 193 metr masofani o‘tib, yo‘l burilishida joylashgan 51-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°25’19,620", sharqiy uzunlik 71°43’ 13,849")*

51-nuqtadan chegara chizig‘i shahar ichki yo‘lida devorga o‘tadi va devor bo‘ylab sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 236 metr masofada shahar ichki yo‘lini kesib o‘tadi, keyin devor bo‘ylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 270 metr masofani o‘tib, devor bo‘yida joylashgan 52-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°25’24,495", sharqiy uzunlik 71°43’33,496")*

52-nuqtadan chegara chizig‘i devordan shahar ichki yo‘liga o‘tdi va yo‘lning janub tomonidan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 406 metr masofada temir yo‘lini kesib o‘tadi va temir yo‘lning sharq tomonidan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 280 metr masofani o‘tib, temir yo‘li bo‘yida joylashgan 53-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°25’36,392", sharqiy uzunlik 71°43’41,582")*

53-nuqtadan chegara chizig‘i temir yo‘lidan shahar ichki yo‘liga o‘tadi va yo‘lning janub tomonidan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 427 metr, keyin yo‘lni kesib o‘tib, devori bilan tutashadi, so‘ngra devor bo‘ylab shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 94 metr, so‘ng g‘arbiy yo‘nalishda 131 metr va shimoliy yo‘nalishda

182 metr, keyin sharqiy yo‘nalishda 346 metr masofada 4R-140A avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 54-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°25’50,937", sharqiy uzunlik 71°44’04,864")*

54-nuqtadan chegara chizig‘i 4R-140A avtomobil yo‘lining sharq tomonidan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 388 metr, keyin avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, shahar ichki yo‘li bilan tutashadi, keyin yo‘li janub tomonidan g‘arbiy yo‘nalishda 446 metr masofani o‘tib, temir yo‘l bo‘yida joylashgan 55-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°26’02,395", sharqiy uzunlik 71°43’42,138")*

55-nuqtadan chegara chizig‘i temir yo‘lining sharq tomonidan shimoliy yo‘nalishda 183 metr masofada devorga o‘tadi, keyin devor bo‘ylab sharqiy yo‘nalishda 52 metr, so‘ngra shimoliy yo‘nalishda 82 metr masofani o‘tib, shahar ichki yo‘li bo‘yida joylashgan 56-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°26’10,720", sharqiy uzunlik 71°43’44,014")*

56-nuqtadan chegara chizig‘i shahar ichki yo‘lning sharq tomonidan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 82 metr, keyin yo‘lning janub tomonidan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 31 metr, so‘ngra yo‘lning sharq tomonidan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 163 metr, so‘ng yo‘lning janub tomonidan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 132 metr va shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 212 metr masofani o‘tib, yo‘l burilishida joylashgan 57-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°26’23,780", sharqiy uzunlik 71°43’34,435")*

57-nuqtadan chegara chizig‘i shahar ichki yo‘lning janub tomonidan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 71 metr, keyin yo‘lning sharq tomonidan shimoliy yo‘nalishda 242 metr masofada devorga o‘tadi, so‘ngra devor bo‘ylab shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 79 metr masofani o‘tib, devor bo‘yida joylashgan 58-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°26’33,936", sharqiy uzunlik 71°43’39,902")*

58-nuqtadan chegara chizig‘i devordan shahar ichki yo‘liga o‘tadi va yo‘lning shimol tomonidan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 98 metr masofada devorga o‘tadi, keyin devor bo‘ylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 126 metr masofada 4R-140A avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 59-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°26’36,594", sharqiy uzunlik 71°43’48,129")*

59-nuqtadan chegara chizig‘i 4R-140A avtomobil yo‘lining sharq tomonidan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 163 metr masofada shahar ichki yo‘liga o‘tadi, keyin yo‘lning sharq tomonidan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 418 metr masofada devor bilan tutashadi, so‘ngra devor bo‘ylab shimoliy yo‘nalishda 121 metr masofani o‘tib, devor bo‘yida joylashgan 60-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°26’36,318", sharqiy uzunlik 71°44’03,072")*

60-nuqtadan chegara chizig‘i devordan soyga o‘tadi va soyning suv oqimi bo‘ylab chap tomonidan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 344 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tadi va soyni chap tomonidan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 40 metr masofani o‘tib, soy bo‘yida joylashgan 61-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°26’43,913", sharqiy uzunlik 71°43’51,566")*

61-nuqtadan chegara chizig‘i soydan temir yo‘liga o‘tadi va temir yo‘lining janub tomonidan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 524 metr, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 401 metr masofani o‘tib, temir yo‘li bo‘yida joylashgan 62-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°27’03,061", sharqiy uzunlik 71°44’20,048")*

62-nuqtadan chegara chizig‘i shahar ichki yo‘lning sharq tomonidan janubiy yo‘nalishda 562 metr, keyin yo‘lning janub tomonidan sharqiy yo‘nalishda

116 metr masofani o‘tib, yo‘l burilishida joylashgan 63-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°26’45,752", sharqiy uzunlik 71°44’26,298")*

63-nuqtadan chegara chizig‘i shahar ichki yo‘lning janub tomonidan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 253 metr, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 315 metr, so‘ngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 173 metr masofani o‘tib, yo‘l burilishida joylashgan 64-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°27’02,568", sharqiy uzunlik 71°44’45,856")*

64-nuqtadan chegara chizig‘i shahar ichki yo‘lning sharq tomonidan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 202 metr, keyin janubiy yo‘nalishda 61 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 65-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°26’55,569", sharqiy uzunlik 71°44’50,560")*

65-nuqtadan chegara chizig‘i shahar ichki yo‘lidan Janubiy Farg‘ona kanaliga o‘tadi va sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda kanalinig suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 296 metr, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 488 metr, so‘ngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 489 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 66-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°27’09,800", sharqiy uzunlik 71°45’36,775")*

66-nuqtadan chegara chizig‘i Janubiy Farg‘ona kanalidan avtomobil yo‘liga o‘tadi va yo‘lini kesib o‘tadi va kanal bilan tutashadi, keyin sharqiy yo‘nalishda Janubiy Farg‘ona kanalinig suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 190 metr, keyin janubiy-sharqiy yo‘nalishda 338 metr, so‘ngra shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 416 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 67-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°27’07,747", sharqiy uzunlik 71°46’08,159")*

67-nuqtadan chegara chizig‘i Janubiy Farg‘ona kanalidan shahar ichki yo‘liga o‘tadi va yo‘lni kesib o‘tadi va kanal bilan tutashadi, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Janubiy Farg‘ona kanalinig suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 372 metr, so‘ngra sharqiy yo‘nalishda 121 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 68-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°27’16,484", sharqiy uzunlik 71°46’24,705")*

68-nuqtadan chegara chizig‘i Janubiy Farg‘ona kanalidan temir yo‘liga o‘tadi va temir yo‘lini kesib o‘tadi va kanal bilan tutashadi, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Janubiy Farg‘ona kanalinig suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 85 metr, keyin sharqiy yo‘nalishda 1206 metr masofani o‘tib, temir bo‘yida joylashgan 69-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°27’23,692", sharqiy uzunlik 71°47’17,451")*

69-nuqtadan chegara chizig‘i temir yo‘lini kesib o‘tadi va kanal bilan tutashadi, keyin sharqiy yo‘nalishda Janubiy Farg‘ona kanalinig suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 668 metr masofani o‘tib, Marg‘ilon, Farg‘ona shaharlar va Toshloq tumani chegara chiziqlar kesishgan kanal bo‘yidagi boshlang‘ich 1-nuqta bilan tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°27’23,087", sharqiy uzunlik 71°47’45,086")*